



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARINING O'QUV-TARBIYA FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON O'QUV RESURLARIDAN FOYDALANISH

Juginisova J.I.

*Informatika o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

Tayanch so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, axborot, shakllantirish, kompetentsiya, dastur, interaktiv, mashg'ulotlar, mantiqiy topshiriqlar, bilim, ko'nikma va malakalar.

Ключевые слова: дошкольники, информация, формирование, компетенция программа, интерактив, занятия, логические задания, знания, умения и навыки.

Key words: preschoolers, information, formation, competence program, interactive, classes, logical tasks, knowledge, skills and skills.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ta'limiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etishda interaktiv majmualardan foydalanish afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье идет речь о преимуществах использования интерактивных комплексов в организации образовательно-воспитательных работ среди воспитанников дошкольных образовательных учреждений.

SUMMARY:

The article refers to the advantages of using interactive complexes in the organization of educational and educational work among pupils of preschool educational institutions.

Jahon maktabgacha ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalarning psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish hamda bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini va kognitiv faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda xalqaro tajribalarga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va



metodik tizimi maktabga tayyorlov guruhlarida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish integrativ yondashuv asosida bilish faoliyatini faollashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash" [1] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, uning ilmiy-metodik ta'minotini yaratishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda bir qancha ijodiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi «Ilk qadam» deb nomlangan yangi dasturida ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etishni asosiy me'zon sifatida belgilagan. Bu dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachi va bolalar uchun yangi o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda bilimlarni o'zlashtirish boshqacha aytganda yangi axborotlar bilan tanishish va ularni anglash hamda o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zarur texnik vositalar yordami asosida ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani amalga oshirish va bilim, ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy o'quv vositalarini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan asosiysi hisoblanadi. Ushbu vazifani bajarishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Chunki bugungi kunning bolalari axborotlashgan jamiyat va texnikaviy asrda ulg'ayotgan va tarbiyalanayotgan shaxslardir. O'shbu omilni hisobga oladigan bo'lsak ta'limiy vositalar yaratishda va axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda yangi o'quv adabiyotlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Yaratiladigan o'quv axborotlari ta'lim va tarbiyani kompleks amalga oshirish imkonini berishi zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganganimizda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda mul'timediya texnologiyasidan foydalanish o'ziga xos xususiyatga egaligi isbotlangan. Bu xususiyatlarni o'rganish didaktik materiallarni tayyorlash va undan ta'lim jarayonida foydalanish pedagogik hamda psixologik ta'sir etish usullarini o'rganishni talab qiladi.



Shuningdek, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, xar bir bola 4 kompetentsiyaga ega bo'ladi va 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi. «Ilk qadam» ta'lim dasturida 3.1. bandida Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari belgilab berilgan:

Kommunikativ kompetentsiya – muloqot vositalaridan turlivaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetentsiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetentsiyasi – atrofdaqi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish [2].

Bolalardagi ushbu kompetentsiyalarni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir qancha ijobiy natijalarga olib keladi.


Ilmiy tadqiqotlarimiz doirasida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda elektron o'quv dasturlar majmuasidan foydalanish bir qator afzalliklarga egaligi tajribalar natijasida aniqlandi. Masalan «Ilk qadam» dasturida ko'rsatilgan ta'limiy ma'lumotlarni elektronlashtirish qatar samarali natijalarga olib keldi. Birinchidan ko'rgazmalilik tamoyili, ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yetkazish tamoyili, nazariya bilan amaliyotni bog'lash masalalari hamda o'rganilgan bilimlarning bolalar xotirasida yaxshi saqlab o'zlashtirish ko'rsatkishlari yuqori bo'lishligi bilan ahamiyatlidir.

Yaratilgan elektron o'quv majmuada tarbiya masalasiga ham alohida o'rin ajratilgan bo'lib, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi, o'z vatanining ramziy belgilari bilan tanishish, bolalar ijodkorligini rivojlantirishda qo'shiqlar to'plamidan va xalq ertaklarini eshitib insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etuvchi bo'limlarni o'zida mujasamlaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida xayol muhim rol' o'ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o'yinlar o'ynay boshlaganida, kattalar qiziqarli

ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatları paydo bo'ladi. Ammo boladagi xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinish qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.)[3].

Masalan: Maqtanchoq quyan, Oltin tarvuz, Chipor tovuq ertakları tarbiyalanuvchilarda nafaqat qiziqarli ertakni tamosha qilib mazmunli hordiq chiqarish, balki adob-ahloqiy fazalatlarni o'zlariga singdirishda va muhokama qilishga o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.



Bu ertaklar mul'timedia sistemasi imkaniyatlaridan foydalanib ovozlashirilgan ko'rinishda berilgan. Bu esa nafaqat sifatli namoyishni tashkil etadi, shuningdek, tarbiyachilar uchun metodik ta'minot vazifasini ham bajaradi.

Tarbiya masalalaridan eng ahamiyatlilaridan yana biri bu sog'lam turmush tarziga rioya etishga o'rgatishdur. Bu maqsadda biz badan tarbiya



Dene shiniǵıw waqtı



mashqlarini bajarish uchun mashg'ulotlarni majmuaga joylashtirganmiz. Ya'ni tarbiyalanuvchilar mashg'ulot qahramoni bilan birgalikda mashqlar bajaradi.[8]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim toshkilotlarining davlat talablarida ko'rsatilgan ta'lim va tarbiya berish vazifalarni bajarishda elektron o'quv resurslaridan foydalanish umumiy muhim kompetentsiyalarini shakllantirishda o'zining salmoqli ahamiyatiga ega deb ayta olamiz. Shuningdek yaratilgan interaktiv o'quv majmuamiz ta'lim tizimini axborotlashtirish, ta'limda informatsion vositalardan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish vazifalarini bajarishga asos bo'ladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
2. "Илк қадам" Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Т. 2018 й.
3. Ш.Шодмонова. Мактабгача таълим педагогикаси, Ўқув методик қўлланма. Тошкент, 2008 йил.
4. Алламбергенова М. Разработка и использование интерактивных учебных комплексов в учебном процессе.// Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан – 2010. -№ 3 -95-97 стр.
5. А.А.Абдукодиров, Н.Н.Бегматова. Мактабгача та'lim muassasalarida mul'timedia texnologiyalaridan foydalanish uslubiyoti. Qarshi «Nafis nashriyoti» 2011 y.
6. Джанпейсова Г.Е. Математик тасаввурларни шакллантириш. Ўқув қўлланма. Тошкент «Инновация-Зиё» нашриёти, 2021й.
7. Erxonova E, Ro'ziyeva Z. "Tarbiyachi kitobi. Matematika". Amaliy qo'lanma. - Toshkent.: "Zamin nashr", 2020 y)
8. Juginisova J, Allambergenova M. Advantages of using e-learning resources in preschool education. Internatsional journal For Innovative Engineering end Manajemen Research. Nov 2020. Volume 09, Issue 11, Pages: 5-9.